

# Xalq ijodiyoti fakultetining 1-bosqich talabalari tomonidan “Talabalik qasamyodi”ga bag‘ishlangan ijodiy bayram tadbiri tashkil etildi



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakultetining 1-bosqich talabalari tomonidan “Talabalik qasamyodi”ga bag‘ishlangan ijodiy bayram tadbiri tashkil etildi.



Tadbirda institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Eldor Shermonov so'zga chiqib, bu yil talabalikka qabul qilingan yoshlarni tabrikladi va ularning kelgusi o'qishlarida muvaffaqiyatlar tiladi.



O'z o'rnida talabalik maqomiga ega bo'lgan o'g'il-qizlar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarida berilgan fuqarolik huquq va burchlarini bajarish, institut ichki tartib-qoidalariga so'zsiz amal qilish, zimmasiga yuklangan vazifalarni sidqidildan bajarish, talabalik maqomiga munosib bo'lishga qasamyod qilishdi.



Bayram tadbirida talabalar tomonidan tayyorlangan qo'shiqlar ijro qilindi. Turli sahna ko'rinishlari, raqslar namoyish etildi.



Ishtirokchilar imkon qadar o'z iqtidorlarini namoyon etishga intildi. Har bir chiqish bayram tadbiri qatnashchilarining qarsaklari ostida qo'llab turildi.

**Matbuot kotibi**